

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**TASDIQLAYMAN”**

**G.Sh.Rixsiyeva**

2025-yil “30”

**MINTAQAVIY IQTISODIYOT**  
**FANINING DASTURI**

**Bilim sohasi:** 400000 – Biznes, boshqaruv va huquq  
**Ta‘lim sohasi:** 410000 – Biznes va boshqaruv  
**Mutaxassislik:** 704110108 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Toshkent – 2025**

TDSHU Tashqi siyosat va  
xalqaro iqtisodiy  
munosabatlar instituti  
direktori:  
2025-yil “ ”

(imzo)

G. Arifjonov

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasini mudiri:  
2025-yil “ ”

(imzo)

Z.A. Kadirova

TDSHU ARM direktori

M.M. Yuldasheva

<b>Fan/modul kodi</b> MINIQT1206		<b>O'quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestr</b> 2	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<b>Mintaqaviy iqtisodiyot</b>	72	108	180	
2.	<b>I. Fanlarning mazmuni</b>				
<p><b>Fanning maqsadi</b> – magistrantlarda mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy kategoriyalari, mintaq va makromintaqalar rivojlanishi, iqtisodiy makon, iqtisodiyotni hududiy jihatdan tashkil etishning konseptual asoslarini o'rganishga tizimli yondashuv tamoyillari haqida umumiy tushunchalarni shakllantirish, ularni ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish va joylashtirish, mintaqalar iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyillari, mintaqalarning geografik joylashuvi, tabiiy-iqtisodiy, inson va innovatsion salohiyati, xalqaro mintaqashunoslik va xalqaro darajada mintaqalarning tasniflanishi bilan tanishtirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifalari</b> – magistrantlarda mintaq va makromintaqalar rivojlanishi xususiyatlari, tendensiyalari va yo'nalishlarini tizimli va fanlararo tadqiq qilish, mintaqalar iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy qoidalari va terminologiyasidan foydalanish, mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishiga oid ilmiy axborotlarni mustaqil izlash va tahlil qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi London iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabi (The London School of Economics and Political Science (QS = 45 o'rin) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/2024?page=2">https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/2024?page=2;</a>  <a href="https://www.lse.ac.uk/resources/calendar2020-2021/courseGuides/GY/2020_GY307.htm">https://www.lse.ac.uk/resources/calendar2020-2021/courseGuides/GY/2020_GY307.htm</a></p>					
<b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b>					
<b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b>					
<b>1-mavzu. Fanga kirish</b>					
<p>Mintaqaviy iqtisodiyot fanining predmeti va metodi. Fanni o'rganish zaruriyati. Mintaqaviy iqtisodiyotning fan sifatida shakllanishi. Fanning maqsad va vazifalari. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining asosiy tushuncha va tamoyillari. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining metodologik asoslari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalari.</p>					

## **2-mavzu. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat**

Mintaqaviy iqtisodiy siyosat: ta'rifi va rivojlanish bosqichlari. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning vazifalari. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ob'ektlari, sub'ektlari va tamoyillari. Mintaqalar rivojlanishiga ta'sir usullari va dastaklari.

### **3-mavzu. Iqtisodiy xavfsizlik va mintaqalarning barqaror rivojlanishi**

Mintaqalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy elementlari va tamoyillari. Iqtisodiy xavfsizlikni oshirish bo'yicha mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalari. Mintaqalar iqtisodiy xavfsizligi darajasini aniqlash va uni tartibga solish. Mintaqalar iqtisodiy xavfsizligining mezonlari va ko'rsatkichlari. Mintaqalar iqtisodiy xavfsizligi darajasini aniqlash. Mintaqalar barqaror rivojlanishining eng muhim tashkil etuvchilari: ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik.

### **4-mavzu. Mintaqalarda aholi yashash va faoliyati joyini tashkil etish**

Shaharlarni rivojlantirishning tavsifi va konsepsiyasi. Shaharlarni rivojlantirish modellari. Shaharlarni rivojlantirish modellarini amalga oshirish texnologiyalari. Shahar qurilishi va tumanlar bo'yicha rejalashtirish. Aholi yashash joylarini rivojlantirish strategiyasini tanlash.

### **5-mavzu. Mintaqaviy iqtisodiyotni diagnostikalashning metodologik asoslari**

Mintaqaviy iqtisodiy diagnostika, uning rivojlanish jarayonlarini tartibga solishdagi o'rni. Diagnostika ob'ekti. Mintaqalar rivojlanishining asosiy indikatorlari. Mintaqalar rivojlanishini diagnostikalash va tahlil qilish usullari. Qiyosiy tahlil. Mintaqalar rivojlanishi tipologiyasi. Mintaqalar rivojlanishini reytinglar asosida baholash. Mintaqa tarkibi va uning dinamik xususiyatlari tahlili.

### **6-mavzu. Mintaqalar resurs salohiyatining shakllanishi va undan foydalanish**

Mintaqalar resurs salohiyatining xususiyatlari. Mintaqalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik salohiyati. Mintaqalarning tabiiy resurs salohiyati, uni iqtisodiy baholash. Mintaqa tabiiy-resurs salohiyatini tarkibiy jihatdan tahlil qilish. Mintaqalarning ekologik muammolari, ularni hal qilish yo'llari. Mintaqalar tabiatidan foydalanish mexanizmi. Mehnat resurslari. Mintaqalarda mehnat bozori va bandlik muammolari. Mintaqaviy rivojlanishni ta'minlash sohasining salohiyati. Ijtimoiy infratuzilma rivojlanishining tavsifi va xususiyatlari.

### **7-mavzu. Mintaqalar rivojlanishining moliyaviy mexanizmi**

Mintaqalarning moliyaviy resurslari va moliyaviy mustaqilligi. Mintaqalar moliyaviy resurslarining tarkibi. Mahalliy budjetlar. Ularning shakllanish xususiyatlari. Budjetlararo munosabatlar va mintaqalar rivojlanishni moliyaviy jihatdan tenglashtirish. Budjet federalizmi tamoyillari. Mintaqalar moliya tizimini prognozlash va rejalashtirish.

### **8-mavzu. Tarmoqlararo majmualar va ular faoliyatining samaradorligi**

Mintaqalar tarmoqlararo majmuasi rivojlanishining tavsifi va yo'nalishlari. Mintaqalar kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xosligi va xususiyatlari. Innovatsion infratuzilma va uning mintaqalar xo'jaligini tarkibiy qayta qurishdagi roli. Sanoat. Agrosanoat majmuasi. Agrosanoat majmuasining tarkibi. Mintaqalar qurilish majmuasi va investitsiya faoliyati. Mintaqaviy investitsiya siyosati. Ilmiy-texnika salohiyatni rivojlantirishning tashkiliy-uslubiy asoslari.

### **9-mavzu. Mintaqalar transport tizimi va uning faoliyati samaradorligi**

Transport faoliyatining mintaqaviy xususiyatlari. Mintaqalar transport tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Mintaqalarda transport tarmog'ini rivojlanishi tahlili. Tuman ichidagi va shaharlararo transportni prognozlash va rejalashtirish. Mintaqalar transport tizimini rivojlantirish istiqbollari.

### **10-mavzu. Mintaqalarda tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanishi**

Tadbirkorlik va kichik biznesning mintaqa iqtisodiyotida tutgan o'rni va roli. Tadbirkorlik va kichik biznesning afzalliklari va zaif jihatlari Respublika mintaqalarida kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishi. Respublika mintaqalarida kichik biznesning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar. Boshqaruv organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining o'zaro munosabatlari. Sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni.

### **11-mavzu. Maxsus iqtisodiy hududlar: xususiyatlari, rivojlanish muammolari**

Maxsus iqtisodiy hududlarning tarkibi va tasnifi. Maxsus iqtisodiy hududlar tashkil etishdan maqsad va uning asosiy vazifalari. Maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish tartibi va uning asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy hududlar: "Navoiy", "Jizzax", "Angren" va boshqalar. Maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish va faoliyat yuritish bo'yicha xorijiy tajriba.

### **12-mavzu. O'zbekistonda mintaqaviy tabaqalashuv (differentsiatsiya)ning vujudga kelish sabablari va uni yumshatish imkoniyatlari**

Mintaqaviy tabaqalashuv (differentsiatsiya) va uning vujudga kelish sabablari. O'zbekiston mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuzaga kelgan tabaqalashuv darajasini tahlil qilish. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha tafovutlar. Aholi daromadlari darajasi bo'yicha tafovutlar. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuzaga kelgan tabaqalashuvni yumshatish mexanizmi va imkoniyatlari.

### **13-mavzu. Mintaqalar tashqi iqtisodiy aloqalari**

O'zbekiston mintaqalarining tashqi iqtisodiy aloqalari: tashqi savdo, eksport va import hajmi dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar. Eksport tarkibi va uni diversifikatsiyalash. Import tarkibini optimisatsiyalash. Mintaqalarning xalqaro iqtisodiy aloqalarda ishtirokini faollashtirishda ularning iqtisodiy erkinligini ta'minlash. Mintaqalar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holati va istiqbollari.

### **14-mavzu. Xalqaro mintaqalashuv va uning xususiyatlari**

Globalashuv va mintaqalashuv – jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendensiyalari. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar. Mintaqalarning tasniflanishi: makromintaqalar, mezomintaqalar va submintaqalar.

### **15-mavzu. Xalqaro mintaqashunoslik ilmiy bilimlar sintezi sifatida**

Xorijiy mintaqashunoslik: tadqiqot ob'ekti va predmeti. Mintaqashunoslikning funksiyalari: ilmiy-uslubiy, o'rgatish, dunyoqarashni shakllantirish, qadriyatlarga yo'naltirish, boshqaruv, bashoratlash. Makromintaqaviy makon va ularning o'ziga xos xususiyatlari

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Mintaqaviy iqtisodiyot" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fanga kirish
2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat
3. Iqtisodiy xavfsizlik va mintaqalarning barqaror rivojlanishi
4. Mintaqalarda aholi yashash va faoliyati joyini tashkil etish
5. Mintaqaviy iqtisodiyotni diagnostikalashning metodologik asoslari
6. Mintaqalar resurs salohiyatining shakllanishi va undan foydalanish
7. Mintaqalar rivojlanishining moliyaviy mexanizmi
8. Tarmoqlararo majmualar va ular faoliyatining samaradorligi
9. Mintaqalar transport tizimi va uning faoliyati samaradorligi
10. Mintaqalarda tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanishi
11. Maxsus iqtisodiy hududlar: xususiyatlari, rivojlanish muammolari
12. O'zbekistonda mintaqaviy tabaqalashuv (differentsiatsiya)ning vujudga kelish sabablari va uni yumshatish imkoniyatlari
13. Mintaqalar tashqi iqtisodiy aloqalari
14. Xalqaro mintaqalashuv va uning xususiyatlari
15. Xalqaro mintaqashunoslik ilmiy bilimlar sintezi sifatida

### **IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

#### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;

	<p>- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;</p> <p>- ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash;</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasi davlat mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari</li> <li>2. O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish Milliy strategiyasi</li> <li>3. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligining mohiyati va uning asosiy ko'rsatkichlari</li> <li>4. Shahrlar rivojlanishining asosiy modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari</li> <li>5. Mintaqalar rivojlanishini diagnostikalash va tahlil qilish usullari</li> <li>6. O'zbekiston Respublikasi mintaqalari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari</li> <li>7. Mintaqaning resurs salohiyati va uning tarkibi (alohida mintaqaga misolida)</li> <li>8. Mintaqaning tabiiy-resurs salohiyatini baholash usullari</li> <li>9. Mintaqaning mehnat salohiyati va undan samarali foydalanish yo'nalishlari (alohida mintaqaga misolida)</li> <li>10. Mintaqaviy dasturlar va ularning mintaqalar rivojlanishida tutgan o'rni</li> <li>11. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida mintaqalar salohiyatidan samarali foydalanish masalalari</li> <li>12. O'zbekiston Respublikasida sanoat rivojlanishining hududiy xususiyatlari</li> <li>13. Mintaqa iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holati va istiqbollari (alohida mintaqaga misolida)</li> <li>14. Mintaqaviy investitsiya siyosati va uning asosiy yo'nalishlari</li> <li>15. O'zbekiston Respublikasida transport tizimi rivojlanishining hududiy xususiyatlari</li> </ol>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistrant:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mintaqaviy iqtisodiy siyosat, uning maqsadi va vazifalari, mintaqalarning barqaror rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, mintaqalarda aholi yashash va faoliyati joyini tashkil etish tamoyillari, mintaqaviy iqtisodiyotni diagnostikalashning metodologik asoslari, mintaqalar resurs salohiyatining shakllanishi va undan samarali foydalanish, mintaqalar rivojlanishining moliyaviy mexanizmi <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>- tarmoqlararo majmualar va ular faoliyatining samaradorligi, mintaqalar transport tizimi va uning faoliyati samaradorligi, mintaqalarda tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanishi, maxsus iqtisodiy hududlarning xususiyatlari, rivojlanish muammolari, O'zbekistonda mintaqaviy tabaqalashuv (differentsiatsiya)ning vujudga kelish sabablari va uni yumshatish imkoniyatlarini tahlil etishni <i>bilishi va undan foydalana olishi</i>;</li> <li>- O'zbekistonda alohida tarmoqlar rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlari, mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etishning ustuvor yo'nalishlari, mintaqalar iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda xorijiy kapitalning o'rni masalalari bo'yicha tadqiqotlarning tizimli tahlil metodlarini qo'llash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>

4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• blits-so'rov;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha testni topshirishi lozim.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. I. Nazarov Sh. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv. -T.: "Renessans" nashriyoti, 2021, 196 b.</li> <li>2. Калимонов И.К. Введение в зарубежное регионоведение. – Чебоксары: Среда, 2024. – 216 с.</li> <li>3. Chakraborty Suman Kalyan. Regional Economics. (M.A. Economics-Elective Code: 1310304111). Directorate of Distance and Continuing Education. Utkal University, Bhubaneswar. 2021.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023</li> <li>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.</li> <li>4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.</li> <li>5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.</li> <li>6. Углинская В.В. Региональная экономика: Учебное пособие для студентов экономических направлений / Рубцовский индустриальный институт. – Рубцовск, 2020. – 80 с.</li> <li>7. Развитие региона посредством регулирования рынка труда в новых условиях / Глезман Л. В., Урасова А. А., Федосеева С. С., Царенко И. В. / Отв. ред.: Урасова А. А. – Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2023. – 309 с.</li> <li>8. Холодова Е.И. Региональная экономика и управление: учеб.-метод. пособие. – Томск: Издательский Дом ТГУ, 2015. – 104 с.</li> </ol>

### Scopusdan maqolalar

9. Lucía Martínez Virto, Victor Sánchez Salmerón. (2019). Regional inclusion policies in Spain: new approaches and keys to their effectiveness. Investigaciones Regionales – Journal of Regional Research, 44 (2019/2), 17-28 ISSN: 1695-7253 e-ISSN: 2340-2717

<https://investigacionesregionales.org/wp-content/uploads/sites/3/2019/11/1.-Virto.pdf>

10. Robertas Damasevicius (2023). Regional Economic Development in the AI Era: Methods, Opportunities, and Challenges. / Journal of Regional Economics. 2023 2 (2), 1-13. ISSN 2972-3434 doi: 10.58567/jre02020001

<https://www.anserpress.org/journal/jre/2/2/11>

### Axborot manbalari

11. [www.imf.org](http://www.imf.org)

12. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

13. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

14. [www.fao.org](http://www.fao.org)

15. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

16. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

17. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

6. Fanning o'quv dasturi "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 - yil "28" 06 dagi "21"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 - yil "28" 06 dagi "11"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

7. **Fan/modul uchun mas'ullar:**

Nazarova F.H. – TDSHU "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori

8. **Taqrizchilar:**

Vohidova M.H. – TDSHU "Tashqi iqtisodiy faoliyat" kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari bo'yicha PhD, dotsent

Tuxliyev N.T. – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (turdosh OTM)